

HAYDOVCHILAR HAQIDA MA'LUMOT TO'PLAYDIGAN OLTI QURILMA

Saidov Abdumannon G'ayrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Bugungi kunda barcha turdagi texnologiyalar rivojlanib bormoqda, shuningdek, avtomobillar ham o'z navbatida zamonaviylashib bormoqda. Mashinalardagi elektro jihozlar va boshqaruv apparatlari funksiyalari ko'payib bormoqda. Ushbu maqolada Biz boshqaradigan transportdagi jihozlar nima qila olishi va qanday vazifalarni amalga oshirishi. Sud ekspertizasi va sug'urta kompaniyalari uchun qanday qulayliklar olib kelishi va dalillar yig'ish ulardan ma'lumotlarni qay tartibda olish haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: avtomobil, kameralar, favqulodda qo'ng'iroq tugmasi, avtomobil displeyi, jinoyatchilarni javobgarlikka tortish, sug'urta tergo'vchisi, elektro jihozlar, avtomobil ekspertizasi, tormozlash, ekspert.

Аннотация. В настоящее время развивается ряд технологий, а также модернизируются транспортные средства. Устройства в автомобилях, фургонах и грузовиках могут предоставлять нам необходимую информацию и контролировать ее во время вождения. Эти механизмы создают новые преимущества для легкого использования транспортных средств. В статье устройства в автомобилях мы ездим, что они могут делать и как это влияет на автомобили. Кроме того, судебные эксперты и следователи страховых компаний могут использовать эти базы данных в судах и возмещать ущерб водителям, пострадавшим в результате аварии, при обнаружении проблем.

Ключевые слова: транспортные средства, видеорекамеры, вызов экстренной помощи, информационно-развлекательная система, процесс привлечения к ответственности правонарушителей, страховой следователь, электроприборы, автомобильная экспертиза, тормозная система, эксперты.

Annotation. Nowadays, a number of technologies are developing, as well as vehicles also modernizing. Devices in cars, vans and lorries can provide us with information we need and its monitor us, during we drive. These mechanisms are creating new advantages to easy use of vehicles. In the article, devices in cars we drive what its can do and how its effect to cars. Furthermore, forensic experts and investigators of insurance companies can utilize from these databases at courts and compensating drivers who are harmed from accident when they detect problems.

Key words: vehicles, cameras, emergency call, the infotainment system, the process of prosecuting offenders, insurance investigator, electro devices, vehicle expertise, braking system, experts.

Hozirgi kunda biz biron bir kishiga o'zimiz boshqaradigan avtomobilimiz haqida ko'plab ma'lumot bera olishimiz mumkin. Bunga sabab avtomobillardagi uskunalar kundan-kunga takomillashib va rivojlanib borayotganligidir. Shuningdek, ko'plab transport vositalarining uskunalari kundalik hayotimizdagi muammolarni ochib bera oladi va xatti-harakatlarimizga, ruhiy holatimizga qarab o'zining munosabatini bildiradi. Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimizga elektromobillar va zamonaviy avto texnologiyalar kirib kelishi ko'paymoqda. Bu esa sud ekspertizasi xodimlari va sug'urta kompaniyasi tergovchilari smart texnologiyalaridan ularning ichida joylashgan uskunalaridan yetarli darajada xabardor bo'lishni talab qiladi.

Avtotransport ekspertizasi bu avtomobillar, furgonlar va yuk mashinalarida saqlanadigan ma'lumotlarni aniqlash, olish va tahlil qilishga e'tibor qaratadigan raqamli sud ekspertizasining bir turi hisoblanadi.

Avtotransport ekspertizasi kelib chiqishiga ko'ra asosan Buyuk Britaniyadagi ANPR¹ (raqamni avtomatik aniqlash) tizimi, MOT² va soliq buzilishi yoki o'g'irlangan mashinalarning tashqi identifikatsiyasilaridan kelib chiqib joriy etilgan. Ushbu tizim 1970-yilda joriy etilgan bo'lib, lekin 1990-yil oxiriga kelib Angliyaning siyosati tufayli ushbu tizimning keng qo'llanilishiga yo'l bermadi. ANPR raqamlarni skanerlash va transport vositalarining ma'lumotlar bazasini tekshirish orqali ishlaydi.

Biroq yaqin yillardan beri jinoyatchilarni javobgarlikka tortish va transport vositalarining eskiligi sababli ularning ichki qismi qurilmalaridan ma'lumotlarni olish juda murakkablashib bormoqda. Lekin bugungi kelib esa transport ishlab chiqaruvchilari haydovchilarga qulaylik tug'dirishi uchun, mashinalarda haydash tajribasini yaxshilash uchun, ularda boshqaruvda ishlatiladigan uskunlardan tortib ko'ngilochar tizimlari bilan jihozlamoda. Bu esa o'z navbatida jinoyatni aniqlashda va sudda ulardan dalil sifatida foydalanilishi va qabul qilinishi uchun ushbu qurilmalarning ma'lumotlar bazasidan foydalanishga yo'l ochadi. Quyida ushbu qurilmalar haqida ma'lumot berib o'tamiz:

1. Qora quti

Qora quti haydovchilarning mashinani haydash qobiliyatini monitoring qilib turadigan qurilma. Ushbu qurilmalar hamma avtotransportlarda ham mavjud bo'lmasada, lekin u sug'urta kompaniyalarida³ haydovchining ruldagi holatini tekshirish uchun va ularga sug'urta puli miqdorini belgilashda keng qo'llanilib kelinadi. Qora quti GPS kordinatorini aniqlash bilan bir qatorda, avtomobilning qancha masofani bosib o'tganligini, qanchalik tez-tez haydalganligi, shuningdek, tormozlash va burilish qobiliyatini ko'rsatishda yordam beradi.

2. Sensorli displey

¹ <https://www.police.uk/advice/advice-and-information/rs/road-safety/automatic-number-plate-recognition-anpr/>

² https://en.wikipedia.org/wiki/MOT_test

³ <https://www.confused.com/car-insurance/black-box/telematics-explained>

Haydash vaqtida musiqa tinglash oddiy kasseta yoki CD pleerni o'z ichiga olgan ekranli qurilma. Ekraniga tegish orqali yoki asboblardan panelida o'rnatilgan displeylar orqali Bluetooth, Wi-Fi va USB qurilmalaridan foydalanishiga imkon beradi.

Shuningdek, ma'lumotlar va media bilan ta'minlaydi. Ko'pincha haydovchilar undan avtomobilning boshqa funksiyalari qay tartibda ishlayotganligi to'g'risida ma'lumot olib turadi. Misol uchun, yoqilg'i sarfi va o'rindiqlarning isitish tizimini nazorat qilish mumkin.

Smartfonlar qurilmaga ulanganda yoki bluetooth bilan ulanganda, sensorli display ma'lumotlarni, navigatsiya tarixi, matnli xabarlar, emailar, internet qidiruv tarixi va ijtimoiy tarmoq ta'minotini, bluetooth va uyali aloqa bog'lanishlarini saqlaydi.

1. Elektron boshqaruv bloklari

EBB avtomobilning qay holatda ishlayotganligiga ko'maklashadi. Ushbu qurilma avtomobil "miyyasi" deb ham ataladi. Ular avtomobilning ichki qismida: "bardachok" (quti) va dvigatel yoki displeyning ostida o'rnatilgan bo'ladi. Asosan, EBB kichik quti ichida joylashgan kommutatsiya tizimi va kuchlanish boshqaruv tizimi kompyuteri hisoblanadi.⁴

Odatda EBBda 75dan ortiq elektron jihozlar bo'ladi va ularning har biri aniq maqsadga yo'naltirilgan. Misol uchun, EBB dvigateli yoqilg'ining in'ektsiyasini va benzinli dvigatellarda, uni yoqish uchun uchqunning vaqtini nazorat qiladi. Bog'langan xavfsizlik kamarlari, havo bosimi va chiroqlarni yoqish va o'chirish ham EBB funksiyalariga kiradi.

Haydovchi samaradorligiga yordam berish uchun, EBB va Sensorli display birgalikda ishlaydi va transport vositasidan foydalanish usullari haqida turli xil ma'lumotlarni saqlaydi.

4. Favqulodda qo'ng'iroq tugmasi

Qurilma 2018-yilda Angliya va Yevropada yangi texnologiyalar uchun qo'llanilgan. Ushbu favqulodda tugmasi qachonki yo'l transport hodisasi sodir bo'lganda, tez yordam chaqirishga mo'ljallangan.

Avtomobil sensorlari to'qnashuvni va xavfsizlik yostiqchalarni ochilishini aniqlash imkonini beradi. Bu o'z navbatida favqulodda xizmatlarga qo'ng'iroq qilishni faollashtiradi.

eCall⁵ orqali avtomobil GPS koordinatori, safar yo'nalishi, VIN⁶ (avtomobil identifikatsiya raqami), ishlatiladigan yoqilg'i turi va hatto xavfsizlik kamarlari bog'langanligi yoki bog'lanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham to'playdi.

5. mashina pulti (key fob)

⁴ <https://www.cazoo.co.uk/the-view/buying/what-is-a-car-infotainment-system/>

⁵ https://europa.eu/youreurope/citizens/travel/security-and-emergencies/emergency-assistance-vehicles-ecall/index_en.htm

⁶ [https://dmv.vermont.gov/tax-title/vehicle-identification-number-vin#:~:text=The%20Vehicle%20Identification%20Number%20\(VIN,features%2C%20specifications%2C%20and%20manufacturer.](https://dmv.vermont.gov/tax-title/vehicle-identification-number-vin#:~:text=The%20Vehicle%20Identification%20Number%20(VIN,features%2C%20specifications%2C%20and%20manufacturer.)

Mashinalarimizni qulflash va qulfdan chiqarishdagi funksiyasidan tashqari, ajoyib boshqa turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Pult ichida saqlanadigan ma'lumotlarning bazalari, VIN kodini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ma'lum bir avtomobilga bog'langan kalitlar soni va avtomobil oxirgi marta qulflangan va qulfdan chiqarilganligi haqida ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

6. Kameralar

Orqa va boshqaruv paneli kameralari mashinalarni parkovka qilishda yordam berishi va sug'urta tergovchilari uchun baxtsiz hodisa tasvirlarini taqdim etishi mumkin. Ular sana va vaqt belgilari bilan bir qatorda transport vositasining sayohatini ham, yo'l joylashuvini ham ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, dash kameralar⁷ boshqa yo'l foydalanuvchilari va piyodalarning tasvirlarini olishi mumkin. Milliy dash kamerasi xavfsizlik portali⁸ kamera egalari tasvirlarni politsiya kuchlariga topshirish imkonini beradi, keyinchalik ushbu ma'lumotlarda tergovchilar foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. *forensic expertise system in Europe;*
3. *[https://action.massnurses.org/forms/mot-law-violation;](https://action.massnurses.org/forms/mot-law-violation)*
4. *[https://sytech-consultants.com/the-evolution-of-vehicle-forensics;](https://sytech-consultants.com/the-evolution-of-vehicle-forensics)*

⁷ <https://nextbase.co.uk/dash-cams/>

⁸ <https://nextbase.co.uk/national-dash-cam-safety-portal/>